

**YUQUMLI VA BOLALAR YUQUMLI KASALLIKLARI KAFEDRASI**  
**4-KURS “Xalq tabobati” ta’lim yo‘nalishining**  
**“YUQUMLI KASALLIKLAR” MODULIDAN SILLABUS**

<b>“YUQUMLI KASALLIKLAR” modulidan sillabus</b>			
Modulning to‘liq nomi: <b>Travmatologiya va ortopediya</b>	Kredit soni: 1 Shundan: JN – 1 Sinov – 0	Modul o‘tilish davri: 7-semestr	ECTS value: 1
Modul kodi: -			
Ta’lim yo‘nalishlari:	60911100- Xalq tabobati	4-bosqich talabalari _____ guruhlar uchun	
Modulning davomiyligi	4 kun		
O‘quv soatlari hajmi:	Jami soat: 36 Shundan: maruza-6 amaliy mashg‘ulot-30 mustaqil ta’lim-0		
O‘quv modulining statusi	Majburiy fanlar		
OTM nomi, manzili	Toshkent tibbiyot akademiyasi Toshkent shahar, Olmazor tumani, Farobiy-2		
Kafedra nomi	Yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrası		
Mazkur kursning o‘qituvchilari haqida ma’lumot	Ma’ruzachi: _____ _____  Amaliy mashg‘ulot o‘tkazuvchi: <b>Gaybullayev F.X.</b>	E-mail: _____ _____  E-mail: fazliddin.xayriddin@mail.ru	
Mashg‘ulot vaqti va joyi	Soat 8.00 dan _____ gacha	RIEMYUPKIATM klinikasi 2-bino 1-etaj. Toshkent sh, Uchtepa tumani Zakovat 2	
Modulning mazmuni	Ushbu modul dasturi O‘zbekiston Respublikasi Davlat ta’lim standarti va bakalavriat ta’lim yo‘nalishi malaka talablariga asoslangan holda tuzilgan, tibbiyot oliy o‘quv yurtlarining xalq tabobati fakulteti talabalariga yuqumli kasalliklar,		

	<p>epidemiologiya modulidan ta'lim berish uchun mo'ljallangan. Dastur yuqumli kasalliklar, epidemiologiya modullari bo'yicha o'qitiladigan talabalarning bilishlari kerak bo'lgan nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar hajmini belgilaydi. Ushbu dastur talabalarga yuqumli kasalliklarning asosiy klinik simptomlari, ularning tashhisot prinsiplari va usullari, kasallikning epidemiologiyasi, o'choqda bajarilishi kerak bo'lgan choratadbirlar, profilaktikasining asoslari (umumiy va maxsus) bilimlarini egallab olishga imkoniyat yaratadi. Yuqumli kasalliklar modulida yuqumli kasalliklarda qo'llaniladigan tekshirishlarning ahamiyati, laboratoriyalar turlari, tekshirish usullari, olingan natijalarni interpretatsiya qilish, bir qator yuqumli kasalliklar diagnostikasi keng yoritilgan. Epidemiologiya modulida epidemik jarayon, yuqumli va yuqumli bo'lmagan kasalliklarni o'rganishga epidemiologik yondoshish, epidemiologik tekshiruv usullari keltirilgan</p>
Prerekvizitlar	<p>Biologiya, odam anatomiyasi, mikrobiologiya, normal va patologik fiziologiya</p>
Postrekvizitlar	<p>normal va patologik anatomiya, topografik anatomiya va operativ xirurgiya, normal va patologik fiziologiya, farmakologiya, mikrobiologiya, nevrologiya, rentgenologiya, dala-harbiy xirurgiyasi.</p>
Modulning maqsadi	<p>Muayyan jarayonda yuqumli kasalliklarning epidemiologik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda eng samarali choratadbirlarni to'g'ri tanlash, hamda o'tkazilayotgan profilaktik choratadbirlarning samaradorligini baholovchi mezonlar bilan ta'minlash bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat. O'qitishdan maqsad, amaliy sog'liqni saqlash tizimida yuqumli kasalliklarga xizmat ko'rsatish, yuqumli kasalxonalarda laboratoriya tuzilishi va ishlash prinsiplari, yuqumli kasalliklar to'g'risida bilim berish, asosiy diagnostika usullar, epidemiologiyaning asosiy tushunchalari, epidemik jarayon, epidemiologik tekshiruv usullari bilan tanishtirish.</p>
Modulning vazifalari	<p>- respublikamiz hududida va tashqaridan kirib kelayotgan kattalar va bolalarda uchraydigan yuqumli kasalliklarni profilaktika qilish, anamnez va klinik laborator ma'lumotlarga asoslanib erta aniqlash, bemorlarni to'g'ri davolash; - bir qator ichki va tashqi omillarni xisobga olgan holda profilaktik choratadbirlar belgilash, xavfli omillarning nojo'ya ta'sirlarini oldindan bila olish, ularni aniqlash, oldini olish va yuzaga kelgan nojo'ya ta'sirlarni bartaraf etish; 4 - sog'liqni saqlashning birlamchi bosqichida laborator tekshiruv usullaridan ratsional foydalanilgan holda yuqumli kasalliklar diagnostikasiga integral yondashish;</p>

<p>Modul bo'yicha talabalar bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar</p>	<p><b>Talaba:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- tibbiyot muammolarini o'rganish va hal etish bo'yicha epidemiologik yondoshishning xususiyatlari, kasalliklar nomenklaturasi va klassifikatsiyasi, epidemiologik tekshirish usullari, epidemiologik tashxis (diagnostika) asoslari;</li> <li>- aholi o'rtasida yuqumli kasalliklarning kelib chiqishi va tarqalishi umumiy qonuniyatlari, epidemik jarayonining rivojlanish mexanizmi va namoyon bo'lish sababi va sharoitlari;</li> <li>- profilaktik va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarning tizimi va tarkibi, qo'llaniladigan preparatlar va texnik vositalar, ularning qo'llanish usullari, aholining epidemiyaga qarshi ta'minlanishini tashkillashtirish;</li> <li>- bemorning shikoyati, epidemiologik anamnezi va kasallik anamnezini to'plash;</li> <li>- laborator va instrumental tekshiruvlar rejasini tuzish; - o'chokda birlamchi profilaktik chora-tadbirlarni tashkillashtirish (spesifik va nospesifik) usullari;</li> <li>- bemorning shikoyati, epidemiologik anamnezi va kasallik anamnezini to'plash;</li> <li>- birlamchi tashxisni asoslash uchun zarur bo'lgan anamnestik va klinik belgilarni aniqlash va ularning yetakchilarini ajratish;</li> <li>- laborator va instrumental tekshiruvlar rejasini tuzish; natijalarni tahlil qilish;</li> <li>- o'chokda birlamchi profilaktik chora-tadbirlarni tashkillashtirish (spesifik va nospesifik) usullari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi</li> <li>- yuqumli kasalliklarni etiologiyasi va epidemiologiyasi; - yuqumli kasalliklarni hozirgi davrda klinik kechish xususiyatlari;</li> <li>- yuqumli kasalliklarga erta tashhis qo'yish, taqqoslash, laborator va instrumental tashhis qo'yishni;</li> <li>- instruktiv hujjatlarga mos ravishda, ularga rioya qilgan holda, epidemiologik diagnostika natijalariga asoslangan holda profilaktik va epidemiyaga qarshi chora tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazishni, profilaktik chora tadbirlar kompleks rejasini tuzishni;</li> <li>- kasalliklarning kelib chiqishi va rivojlanishini oldini olish maqsadida, sog'lom hayot tarzini tashviqot (propaganda) qilish, aholining tarbiyasi bo'yicha sanitar oqartuv ishlarini o'tkazishni;</li> <li>- infeksiya manbalarini erta aniqlash va zararsizlantirish bo'yicha epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar sxemasini tuzish va o'tkazishda uchastka terapevti va poliklinika yuqumli kasalliklar kabineti shifokorining asosiy vazifalarini;</li> </ul>
--	--

	<ul style="list-style-type: none"> <li>- davolash profilaktika muassasalarida (DPM) epidemiyaga qarshi tartibni (rejimni) tashkillashtirishni, yuqumli kasalliklar dispanserizatsiyasi va profilaktikasini o‘tkazishni;</li> <li>- DPM markazlashgan sterilizatsiya bo‘limining ish tartibini va epidemik o‘choqda joriy dezinfeksiya o‘tkazishni tashkillashtira olishni;</li> <li>- karantin va o‘ta havfli infeksiyalarda profilaktik va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar o‘tkazilish xususiyatlarini hamda himoya kostyumlarini kiyish va yechish qoida va tartibini bilishi va ulardan foydalana olishi; - sariqlik belgisi bilan kechuvchi kasalliklarda siydikda o‘t pigmentini aniqlash (Rozin sinamasi);</li> <li>- bemordan gemokulturaga qon olish (TPK misolida);</li> <li>- o‘tkir ichak kasalliklari (salmonellez va ichburug‘)da bakteriologik tekshirish uchun najas olish;</li> <li>- ko‘k yo‘tal kasalligida bemordan bakteriologik tekshirish uchun “yo‘tal plastinka” usulida namuna olish;</li> <li>- bezgak kasalligida gemoparazitni aniqlash maqsadida yo‘g‘on tomchi tayyorlash;</li> <li>- bezgak kasalligida gemoparazitni aniqlash maqsadida surtma tayyorlash;</li> <li>- enterobioz kasalligida gijja tuxumlarini aniqlash uchun perianal sohadan surtma tayyorlash;</li> <li>- hayvonlar va kemiruvchilar tishlaganda jarohatlarni tozalash;</li> <li>- uy sharoitida bemorlarda oral regidratatsiya o‘tkazish</li> <li>- Profilaktik chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish.</li> <li>- Epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish.</li> <li>- Avtomaks yordamida epidemiologik o‘choqqa ishlov berish. - Joriy dezinfeksiya o‘tkazish uchun dezinfeksion eritmalarni tayyor-lash.</li> <li>- Xloraminning ishchi eritmasini tayyorlash.</li> <li>- Bakteriologik preparatlarni sovutish zanjiriga rioya kilish va saqlash tartibi.</li> <li>- Qorin tifi o‘chog‘ida profilaktika maqsadida bakteriofag qo‘llanilishi.</li> <li>- Karantin infeksiyaga gumon qilingan bemor aniqlanganda xabar berish tartibi va bemorni aniqlagan shifokorning taktikasi.</li> <li>- Himoya kiyimlarini kiyish va yechish tartibi malakalarga (shu jumladan amaliy va klinik amaliy ko‘nikmalariga) ega bo‘lishi kerak.</li> </ul>
Ta’lim berish usullari	Ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlar
Ta’minot	Videofilmlar, multimediyali va o‘qituvchi kompyuter

	dasturlardan, o‘qitish metodikasidagi yangi texnologiyalardan, mavzular bo‘yicha nazariy bilimlarni so‘rashdan foydalaniladi; mustaqil ishi, individual va guruhli prezentatsiyalar, uyga berilgan vazifalarni tayyorlash, referatlar yozish, testlar, vaziyatli masalalar va boshqalar.
--	--

**Tavsiya etilayotgan ma‘ruza mashg‘ulotlari:**

№	Ma‘ruzalar mavzulari	Soatlar hajmi
1	<b>1-mavzu.</b> Sariqlik sindromi bilan kechuvchi yuqumli kasalliklarning (virusli gepatit A, B, C, D, E, herpes va sitomegalovirus infeksiyalari, leptospiroz, iersinioz, infeksiyon mononukleoz) etiologiyasi, epidemiologiyasi, klinikasi, tashxislash, davolash.	2
2	<b>2-mavzu.</b> Isitma sindromi bilan kechadigan bakterial (brusellez, meningokokk infeksiyasi, skarlatina, o‘lat), virus etiologiyali kasalliklar (gripp, O‘RVI, gemorragik isitmalar, koronavirus infeksiyasi, qizamiq, qizilcha, suvchechak, epidemik parotit) etiologiyasi, klinikasi, tashxislash, davolash, rehabilitatsiyasi.	2
3	<b>3-mavzu.</b> Diareya sindromi bilan kechuvchi kasalliklarning (ich terlama. A va B paratiflar, salmonellyoz, shigellyoz, OTI, botulizm, vabo, OIV-infeksiyasi, rotavirus infeksiyasi) etiologiya, epidemiologiya, klinikasi, tashxisoti, davolash, rehabilitatsiyasi	2
<b>Jami</b>		<b>6</b>

**Amaliy mashg‘ulotlar:**

№	Amaliy mashg‘ulotlar mavzulari	Soatlar hajmi
1	<b>1-mavzu.</b> Mutaxassislikka kirish. Yuqumli xizmatning tuzilishi, yuqumli kasalliklar tasnifi, yuqumli jarayon davrlari, yuqumli kasalliklarning asosiy klinik sindromlari, yuqumli kasalliklarning diagnostikasi, davolash va profilaktikasining umumiy prinsiplari. Sariqlik sindromi bilan kechuvchi yuqumli kasalliklarning (virusli gepatit A B, C, D, E, herpes infeksiyalari, leptospiroz, iersinioz, infeksiyon mononukleoz) etiologiyasi, klinikasi, tashxislash, davolash, rehabilitatsiyasi.	4
2	<b>2-mavzu.</b> Isitma sindromi bilan kechadigan bakterial (brusellez, meningokokk infeksiyasi), virus etiologiyali kasalliklar (gripp, O‘RVI, gemorragik isitmalar, koronavirus infeksiyasi, epidemik parotit) etiologiyasi, klinikasi, tashxislash, davolash, rehabilitatsiyasi.	4

**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

<b>№</b>	<b>MT mavzulari</b>	<b>Soatlar hajmi</b>
1	Qoraqurt ( <i>Latrodectus tredecimguttatus</i> ) chaqqanida birinchi yordam.	3
2	Taxtakananing tibbiyotdagi ahamiyati. Profilaktikasi.	3
3	Ichak amyobasi ( <i>Entamoeba coli</i> ) tuzilishi, tibbiyotdagi ahamiyati. Profilaktikasi.	3
4	Tripanosoma avlodi ( <i>Trypanosoma</i> ) hayot sikli, etiologiyasi, klinikasi, tashxislash, davolash, profilaktikasi.	3
5	Qon so'rar sporozoalar ( <i>Haemosporidia</i> ) hayot sikli, etiologiyasi, klinikasi, tashxislash, davolash, profilaktikasi.	3
6	Mushuk so'rg'ichlisi ( <i>Opisthorchis felinus</i> ) hayot sikli, etiologiyasi, klinikasi, tashxislash, davolash, profilaktikasi.	3
7	Keng lentasimon ( <i>Diphyllobothrium latum</i> ) hayot sikli, etiologiyasi, klinikasi, tashxislash, davolash, profilaktikasi.	3
8	Ankilostoma hayot sikli, etiologiyasi, klinikasi, tashxislash, davolash, profilaktikasi.	3
9	Onxoserko ( <i>Onchocerca volvulus</i> ) va Dirofilyarioz ( <i>Dirofilaria repens</i> ) hayot sikli, etiologiyasi, klinikasi, tashxislash, davolash, profilaktikasi.	3
10	Parazitologik tekshiruv usullari.	3
	<b>Jami</b>	<b>30</b>

**Yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrasini mudiri, t.f.d.**



**L.N. Tuychiyev**

**Pediatrya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti dekani**



**A.A. Xamrayev**

**Yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrasini assistenti**



**Sh.J. Bobojonov**